



THE APPARATUS OF THE FERGANA REGION GOVERNORATE IN THE MILITARY AND CIVIL ADMINISTRATION SYSTEM OF THE TURKESTAN GOVERNOR-GENERALSHIP IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES

Mushtariybegim Raupova

Teacher at the Department of Social and Humanitarian Sciences

Pedagogy and Psychology, Andijan State Institute of Foreign Languages

E-mail: raupovamushtariy@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan Governor-Generalship, Fergana Region, uezd administration, colonial system, taxes and levies, police administration, resettlement policy, local self-government, military governorship.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: This article analyzes the military-civilian administrative system of the Fergana Region within the Turkestan Governor-Generalship in the late 19th – early 20th centuries, with particular attention to the structural components of local governance institutions. Issues such as administrative-territorial divisions, uezd (district) management, taxation system, police authorities, and resettlement policy are examined based on archival documents and historical sources from the colonial period.

XIX ASR OXIRI –XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI HARBIY VA FUQAROLIK BOSHQARUV TIZIMIDA FARG‘ONA OBLAST GUBERNATORLIGI APPARATI (MAHALLIY HOKIMIYATNI INSTITUTIONAL TARKIBIY QISMLARI)

Mushtariybegim Raupova

Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Andijon davlat chet tillari instituti

raupovamushtariy@gmail.com

Andijon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Turkiston general-gubernatorligi, Farg‘ona oblasti, uyezd boshqaruvlari, mustamlakachilik tizimi, soliq va yig‘imlar, politsiya idorasi, ko‘chirish siyosati, mahalliy hokimiyat, harbiy gubernatorlik.

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi tarkibida bo‘lgan Farg‘ona oblastining harbiy va fuqarolik boshqaruv tizimini, ayniqsa, mahalliy hokimiyat institutlarining tarkibiy qismlarini tahlil qiladi. Mustamlakachilik davridagi ma‘muriy

bo'linmalar, uyezd boshqaruvlari, soliq tizimi, politsiya idoralari va ko'chirish siyosati kabi masalalar arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

АППАРАТ ГУБЕРНАТОРСТВА ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ВОЕННОЙ И ГРАЖДАНСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Муштариёбегим Раупова

Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук, педагогики и психологии

Андижанский государственный институт иностранных языков

E-mail: raupovamushtariy@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О С Т А Т Ь

Ключевые слова: Туркестанское генерал-губернаторство, Ферганская область, управление уездами, колониальная система, налоги и сборы, полицейское управление, политика переселения, местное самоуправление, военное губернаторство.

Аннотация: Настоящая статья посвящена анализу военно-гражданской системы управления Ферганской области в составе Туркестанского генерал-губернаторства в конце XIX – начале XX века, с особым вниманием к структурным компонентам местных органов власти. Вопросы административно-территориального деления, управления уездами, системы налогообложения, деятельности полицейских органов и политики переселения рассматриваются на основе архивных документов и исторических источников периода колониального управления.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olish jarayonini yakunlab, bu hududni o'zining mustamlaka mulkiga aylantirdi. Bu jarayonning muhim bosqichlaridan biri 1867-yil 11-iyulda imperator Aleksandr II farmoni bilan Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bo'ldi. Dastlab Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini qamrab olgan bu ma'muriy-hududiy birlik keyingi yillarda bosib olingan yangi hududlar hisobiga kengaydi. Ayniqsa, 1876-yil 19-fevralda Qo'qon xonligining rasman tugatilishi va uning o'rnida Farg'ona viloyati (oblasti)ning tashkil etilishi Turkiston general-gubernatorligining tarkibini yanada mustahkamladi. Ushbu viloyatning markazi dastlab Qo'qon shahrida joylashgan bo'lsa-da, ekologik (yer osti suvlari va sanitariya muammolari), strategik va ma'muriy sabablarga ko'ra tez orada Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahriga ko'chirildi.

Farg'ona oblasti general-gubernatorlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning harbiy va fuqarolik boshqaruv apparati mahalliy hokimiyat institutlarining asosiy tuzilishini

belgilab berdi. Bu tizimning asosiy maqsadi Rossiya imperiyasining siyosiy, iqtisodiy va harbiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lib, mahalliy aholini qattiq nazorat ostida ushlab turish, soliq va yig'implarni samarali yig'ish hamda rus aholisini ko'chirib joylashtirish siyosatini izchil amalga oshirishga qaratilgan edi.

Farg'ona vodiysi o'zining boy tabiiy sharoitlari, ayniqsa, yuqori hosildor sug'oriladigan yerlari va an'anaviy dehqonchilik madaniyati bilan ajralib turardi. Chor Rossiyasi bu hududni tez orada paxtachilikning asosiy bazasiga aylantirdi Amerika paxta navlari keng joriy etilib, vodiyni iqtisodiy hayotini butunlay o'zgartirdi. Paxta xom ashyosi Rossiya sanoatini muntazam ta'minlab turdi. Natijada Farg'ona oblasti imperiyaning xom ashyo yetkazib beruvchi muhim manbasiga aylandi. Shu bilan birga, bu jarayon mahalliy dehqonlarning iqtisodiy ahvolini keskin og'irlashtirdi: yer taqchilligi, qo'shimcha majburiyatlar va ekspluatatsiya kuchayishi bilan birga, sinfiy tabaqalanish va norozilik ham ortib bordi.

Maqolada Farg'ona oblastining ma'muriy-hududiy tuzilishi, uyezd boshliqlari va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, soliq va yig'im tizimi, politsiya idoralari faoliyati hamda rus aholisini ko'chirish siyosati batafsil ko'rib chiqiladi. Tahlil faqat ishonchli tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida olib borilgan bo'lib, chor mustamlakachiligining Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik oqibatlarini yoritishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot chor Rossiyasi boshqaruvi ostida Turkiston o'lkasi, xususan Farg'ona oblasti qanday qilib imperiyaning strategik va iqtisodiy tayanchi bo'lib qolganini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tizimning mahalliy jamiyatga olib kelgan salbiy oqibatlari – milliy boylklarning ekspluatatsiyasi, yer munosabatlarining buzilishi va keyinchalik milliy-ozodlik harakatlarining kuchayishiga zamin yaratgani ham ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Farg'ona oblasti Turkiston general-gubernatorligining muhim qismi bo'lib, uning hududi bir nechta uyezdga bo'lingan. Qo'qon uyezdi oblastning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, xonlik davrida markaz hisoblangan Qo'qon shahri chor imperiyasi davrida ham ma'muriy markazga aylantirildi. Oblast harbiy ma'muriy boshqarmasi dastlab shu shaharda joylashgan edi, ammo keyinchalik Yangi Marg'ilonga ko'chirildi. Qo'qon shahriga hokim va to'ralar joylashtirilgan, o'rda atrofida rus uslubidagi uylar qurilgan, jumladan, Abdurahmon Oftobachining uyiga shaxsan hokim joylashgan.

Qo'qon uyezdining sharqiy qismida Marg'ilon uyezdi joylashgan bo'lib, markazi Marg'ilon shahri edi. Tarixchi Muhammad Aziz Marg'iloniy ta'kidlashicha, Marg'ilonga qancha qishloq va shaharlarni qo'shib, uning nomini Marg'ilon uyezdi deb daftarga yozilgan va unga bir hokim tayinlangan. O'sh uyezdi oblastning sharqiy chegarasida joylashgan bo'lib, uning hududining asosiy qismini tog' tizmalari tashkil etgan. Oblastning shimolida Andijon va Namangan uyezdleri joylashgan bo'lib, ular asosiy o'troq aholi yashaydigan hududlar edi.

Andijon uyezdi 1876-yildan 1917-yil oktyabr to'ntarishigacha uyezd boshlig'i tomonidan cheklanmagan huquq vakolatlari orqali boshqarilgan. Uyezd boshlig'i bevosita Farg'ona oblasti harbiy gubernatoriga bo'ysungan. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Andijon uyezdi boshqaruv tizimi quyidagicha taqsimlangan: uyezd boshlig'i – bosh ma'mur, uning katta va kichik yordamchilari, Andijon shahar boshlig'i, bosh oqsoqoli, volostlar boshqaruvchilari, oberofitser (kichik zobit) va uchastka pristavi.

Andijon uyezdi 5 ta ma'muriy qismga bo'lingan, ular esa 21 ta volostga ajratilgan. Uyezd boshlig'i mustamlaka ma'muriyatining asosiy bo'g'ini bo'lib, ma'muriy, politsiyaviy va soliqlar bo'yicha sud hokimiyatini mujassamlashtirgan. U politsiyaviy hukumat sifatida soliq to'lamaganlar ustidan hukm chiqarish vakolatiga ega edi. 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomda uyezd shaharlarida xo'jalik va obodonlashtirishga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan.

Andijon uyezdi boshlig'i 1877-yil 25-aprelda Farg'ona oblasti harbiy gubernatoriga yo'llagan bildirgisida Andijon shahrini xon hukumati davridagidek – Saydon-Tuman, Uyluq, Olayliq, Qirliq kabi 4 dahaga bo'lingani, ular tarkibida oqsoqollar boshchiligida 43 ta mahalla mavjudligini ko'rsatgan. Saydon-Tuman dahasida 11 ta mahalla, 248 xo'jalik; Uyluq dahasida 11 ta mahalla, 2636 xo'jalik; Olayliq dahasida 11 ta mahalla, 2815 xo'jalik; Qirliq dahasida 10 ta mahalla, 2635 xo'jalik bo'lgan. Har bir mahallada 40 tadan 268 tagacha xonadon mavjud edi.

1896-yil 7-sentyabrda Farg'ona oblasti boshqarmasi Andijon Eski shahrida katta oqsoqollik lavozimini tugatishni so'ragan. Shahar pristavi (politsiya boshlig'i) faqat shaharning ruslar yashaydigan qismini nazorat qilgan, musulmon aholisi yashaydigan qismini esa nomigagina nazorat qilgan. Uning vazifasiga rus sudi va ma'muriy hukumat qarorlarini ijro etishni nazorat qilish kirgan. Mahalliy aholini nazorat qilish katta va 2 ta kichik oqsoqol tomonidan amalga oshirilgan. Ularning vazifasiga aholini mulkini qo'riqlash va shahar tinchligini saqlash kirgan.

Mustamlakachi hukmdorlar o'z hukmronligini yuqori mahalliy ekspluatatorlar yordamida mustahkamlashga harakat qilgan. Shahar katta oqsoqolligiga bevosita politsiyaga bo'ysunuvchi qo'rboshilar qo'yilgan. Qo'rboshi Eski shahar bo'yicha politsiyaning yordamchisi hisoblangan.

1917-yilga qadar imperiyaning barcha shaharlarida shahar Nizomi joriy etilmagan. Volostlar va qishloqlar oqsoqolligiga har uch yilda "saylovlar" o'tkazilgan, ammo ular pora berish yo'li bilan amalga oshirilgan. Mustamlakachi hukumat amaldorlari yordami bilan yirik zamindorlar, biylar, sudxo'rlar va yer egalari saylangan. Agar saylangan shaxslar hukumat talablariga mos kelmasa, ular o'zlariga ma'qul nomzodlarni saylagan.

Volostlar boshqaruvchilarini va qishloqlar oqsoqollarini saylash ikki yoki undan ko'p talabgor o'rtasida kurash ostida bo'lib, ular saylovchilarga pora va ziyofat berish uchun ko'p

harajat qilgan. Lavozimga ega bo'lganlar sarflangan mablag'ni aholidan turli bahonalar bilan yig'ib olgan.

Sud muassasalari chor hukumati tomonidan Farg'ona oblastining barcha uyezdlarida tashkil etilgan va uyezd boshlig'i nazoratida bo'lgan. Sudyalar ko'pincha pora berish yo'li bilan saylangan va tasodifiy kishilar bo'lgan.

Mustamlakachilik davrida mehnatkashlar ommasining qishloqlashuvi va xonavayron bo'lish tendensiyasi ortib borgan. Kapitalistik munosabatlar rivojlanishi dehqonlar, chorvadorlar va sanoatchilarda sinfiy tabaqalanishga olib kelgan. Yersiz aholi yer egalarida chorkor, koranda, mardikor bo'lib kun ko'rgan.

Farg'ona oblasti uyezdlari qishloq jamoalariga bo'lingan, ularni mahalliy millat vakillari – qishloq oqsoqollari boshqargan. Mahalliy shaharlarga nisbatan Nizomning 73 va 80-moddalariga ko'ra volostlarga nisbatan tartib joriy etilgan [1.157,158]. Farg'ona oblasti harbiy gubernatori 1908-yil 23-iyulda Andijon uyezdi boshlig'iga Andijon shahrini qishloq jamoalariga bo'linishi haqida habar qilish vazifasini topshirgan. Andijon uyezdi boshlig'i 1908-yil 29-iyulda shaharni qishloqlarga bo'linishi Qo'qon xonligi davridayoq mavjud bo'lganini yozgan [2. 10,11].

Soliq tizimi va iqtisodiy boshqaruvda Rossiya imperiyasi “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom”ning to'rtinchi bo'limi o'lkada soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan edi. Ushbu nizomning barcha tahrirlarida oblast, shahar va uyezdlar ta'minoti uchun soliq, yig'im va majburiyatlar belgilangan.

Chor Rossiyasining Turkistondagi asosiy tayanchi – politsiya idorasi bo'lib, u katta vakolatlarga ega edi [3.403]. Turkiston o'lkasi boshqaruvida faqat Toshkent shahri o'ziga xos tizimga ega bo'lgan. Toshkentdan boshqa shaharlarda o'z-o'zini boshqarish organlari tashkil qilinmagan. 1867-yil “Nizomi”ga ko'ra, jamoat-xo'jalik ishlari shaharlarda saylanuvchi mahalliy ma'muriyat tomonidan amalga oshirilgan. Shaharlar dahaga bo'linib, ularni oqsoqollar boshqargan. Ular mahalliy saylovchilar qurultoyi tomonidan saylangan.

Shahar oqsoqollari soliq yig'ish va majburiyatlarni taqsimlash bilan mashg'ul bo'lgan [4.5]. Ular harbiy gubernator tomonidan tayinlangan katta oqsoqolga bo'ysungan. Katta oqsoqolga mirshablar, miroblar va qozilar bo'ysungan. Ularning maoshi shahar aholisidan yig'ilgan mablag'dan to'langan [5.55].

Turkistondagi ba'zi shahar markazlarida 1867-yil “Nizom loyihasi”ga muvofiq, munitsipal funksiyalarga ega jamoat xo'jalik muassasalari tashkil qilingan. 1870-yilda general-gubernator topshirig'iga binoan Farg'ona oblastining o'troq aholisidan xiroj, tanobona va boshqa to'lovlar bekor qilinib, yer solig'i joriy qilingan. Yer solig'ining hajmi 5 foizdan 10 foizga ko'tarilgan [6.95].

Zarafshon okrugida 1870-yilda amlokdorlar mirobona to'lovini yig'ishgan. Buxoro amirligi davrida mirobona ariqlarni tozalash uchun yig'ilgan bo'lsa, Turkiston davrida aholining zimmasida bo'lsa ham, amlokdorlar uni yig'ib olgan. General-gubernatorlik bu pullarni davlat g'aznasiga kirim qilgan va yo'l ta'miri uchun sarflashni talab qilgan [7.1,9].

1886-yil 12-iyundagi Nizomning 285-291-bandlariga ko'ra, yerning o'rtacha yalpi daromadining 10% miqdorida yer solig'i belgilangan. Qo'shimcha ravishda umumiy soliqning 25% miqdorida zemstvo solig'i to'lash majburiy edi.

Farg'ona oblastining markazi dastlab Qo'qon shahri bo'lgan, ammo ekologik va sanitariya muammolari tufayli Yangi Marg'ilonga ko'chirilgan. Rus amaldorlari o'zlariga qulay sharoit yaratish uchun markazni ko'chirgan.

Natijalar va muhokama. Rus hukmronligi o'rnatilgach, Turkistonda milliy davlatlar yo'q qilinib, siyosiy-ma'muriy tizim Rossiya manfaatlari asosida shakllantirildi. Oliy lavozimlar rus harbiylariga topshirilgan, mahalliy vakillar quyi lavozimlarga tayinlangan. Saylov tartiblari joriy etilgan bo'lsa-da, faqat Rus davlatiga sodiq kishilar saylangan.

Rus hukumati Turkistonni uch qismga bo'lib, milliy birdamlikka yo'l qo'ymagan. Rus tiliga davlat maqomi berilgan, milliy tillar siqib chiqarilgan. Rus-tuzem maktablari ochilgan va Rossiyaga sodiq kishilarni tarbiyalash vazifasi qo'yilgan.

Rus hukumati ruslashtirish siyosatini yuritgan. 1870-yili Rossiya xalq maorifi vazirligi ko'rsatmasida tubjoy xalqlarni ruslashtirish ma'orifning asosiy vazifasi deb ta'kidlangan. Milliy maktab va madrasalarga mablag' ajratilmagan, ammo mahalliy savdo ahli ularni qo'llab-quvvatlagan.

Islom dini jamiyat ma'naviyatining asosi bo'lib, din peshvolari milliy manfaatlarni himoya qilgan. Rus hukumati ruhoniylarni dushman deb hisoblab, ularni nazorat ostiga olgan va vaqf yerlarini qisqartirgan.

1877-yili Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Skobelev Kaufmanga ruhoniylarni dushman deb yozgan, chunki ular xalqni ruslarga qarshi otlantirishga qodir edi.

Turkistonga Rossiya aholisini ko'chirish siyosati bosib olingan kundan boshlangan. 1873-yildagi loyihaga asosan, Kaufman imperiyaning g'arbiy guberniyalaridan ko'chib keluvchilarga imtiyozlar berilgan: 15 yillik pulli imtiyoz, harbiy majburiyatdan ozodlik va davlat yerlariga joylashtirish [8.614].

XIX asr oxirida Turkistonda 116 ta rus posyolka tashkil etilgan, ularda 70 745 nafar aholi yashagan, XX asr boshlarida 197 420 kishiga yetgan. 1876-yilda birinchi rus qishlog'i tashkil etilgan, 1899-yilgacha 69 ta posyolka mavjud bo'lgan: 55 ta Sirdaryoda, 9 ta Samarqandda, 5 ta Farg'onada, aholisi 24 388 nafar [9.616].

1886-yil Nizomi ko'chirish masalalarini tartibga solgan [10.12]. Nizomga ko'ra, davlat yerlarini vaqf yerlari hisobiga kengaytirish norozilik uyg'otgan. Rus posyolkalariga alohida ahamiyat berilgan, natijada ruslar soni 197 420 kishiga yetgan.

1889-yil o'zgartirishlarga ko'ra, Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlariga ko'chirish rus millatiga mansub pravoslavlariga taalluqli edi. Ko'chirish general-gubernator roziligi va vazirlik ruxsatnomasi bilan amalga oshirilgan.

Farg'ona vodiysida mahalliy aholi zich joylashganligi sababli yer taqchilligi mavjud edi. 1876-yilda Farg'ona paxta bazasiga aylantirilgan. 1891-yilda Vrevskiy tashabbusi bilan rus aholisini ko'paytirish boshlangan. 1893-yilda O'sh uyezdida Pokrovskiy posyolkasi tashkil etilgan, 1896-yilga 86 ta xo'jalik 1348 desyatina yerga egalik qilgan [11.193].

Komissiya ko'chirilganlarni joylashtirish uchun tuzilgan. 1893-yilda 1000 rubl ajratilgan. Pokrovskiyga Malorossiya va boshqa guberniyalardan oilalar kelgan. 1906-yilgacha kazaklarga yer berilgan: Yettisuvda 752 197 desyatina, Farg'onada 9 925 desyatina va h.k.

1917-yilda Turkistonda 750 ming rus yashagan, ulardan 400 ming shaharda. Ruslar "Yangi Toshkent", "Yangi Marg'ilon" kabi shaharlarda joylashgan. 1916-yilda Toshkent "Rus shahri" aholisi 60 mingga yetgan.

O'lka xomashyo manbayiga aylangan, natijada milliy-ozodlik harakatlari (1892, 1898, 1916) ko'tarilgan [13.360,365].

Pokrovskiyda rus dehqonlari mahalliy iqlimga moslashmagan, ammo keyinchalik dehqonchilik va chorvachilikni o'rganib, mahalliy aholidan xizmatchi yollagan. 1893-yilda Pokrovskiyga 200 ta oila ko'chirilgan, 4000 desyatina yer ajratilgan.

1897-yilda Namangan uyezdida Uspenskiy va Nikolayevskiy posyolkalar tashkil etilgan . 1898-yil Dukchi Eshon qo'zg'olonidan keyin yerlar musodara etilgan [16].

1902-yilda ko'chkinchilar mahalliy qirg'izlar bilan kelishib joylashgan, ammo keyinchalik nizolar ko'paygan . 1903-yilda Turkiston ko'ngillilar uchun ochiq e'lon qilingan, 1907-yilda yopilgan .

1906-yilgacha nizolarni bartaraf etish uchun choralar ko'rilgan. 1897-1901 yillarda 7 ta posyolkaga 682 ta oila kelgan. 1897-yilda 9842 nafar rus hisobga olingan. Birinchi jahon urushi arafasida 21 750 nafar rus yashagan. 1910-1917 yillarda 34 ta uchastkaga 1257 xonadon ko'chirilgan.

Rus ko'chirilganlari imperiya tayanchi bo'lib, mahalliy sharoitga moslashib, jamiyat shakllanishiga hissa qo'shgan.

Xulosa. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona oblast gubernatorligi apparati mustamlakachilik tizimining muhim qismi bo'lgan. Ma'muriy bo'linmalar, soliq tizimi, politsiya va ko'chirish siyosati mahalliy jamiyatni nazorat ostida saqlagan. Bu siyosat iqtisodiy

ekspluatatsiya va milliy birdamlikka to'sqinlik qilgan, ammo mahalliy va ko'chirilgan aholi o'rtasida hamkorlik holatlari kuzatilgan. Mustamlakachilik oqibatlari milliy-ozodlik harakatlarida namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шамсутдинов Р.Т., Исхоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Т.: “Шарқ”, 2013, стр. 157-158.
2. История Андижана. Т.: “Фан”, 1980, стр. 10-11.
3. Ватан тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ. 2020. 403.Б.
4. Ўз МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 3151-йиғмажилд, 5-5-орка варақлар.
5. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. Тошкент, 2002. Б. 55.
6. Обзор Сыр-Дарьинской области за 1886 г.- Ташкент, 1887.-Б.95.
7. Ўз МА, И-1-фонд, 20-рўйхат, 2954-йиғмажилд, 1-9 орқа-варақлар.
8. ЎзР МДА, И-717-фонд, 1-рўйхат, 17-йиғмажилд, 614-варақ.
9. ЎзР МДА, И-717-фонд, 1-рўйхат, 17-йиғмажилд, 616-варақ.
10. Гаврилова Н. Переселенческое дело в Туркестанском край. С.-Петербург, 1911. 12-бет.
11. Половцева А.А. Отчёт чиновника особых поручений при Министерстве внутренних дел, командированного в 1896-1897 г.г. для собрания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. СПб., 1898; 193-бет.
12. Половцева А.А. Отчёт чиновника особых поручений при Министерстве внутренних дел, командированного в 1896-1897 г.г. для собрания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. СПб., 1898; 194-бет.
13. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши қураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. 360-363 бетлар.
14. Половцева А.А. Отчёт чиновника особых поручений при Министерстве внутренних дел, командированного в 1896-1897 г.г. для собрания сведений о положении переселенческого дела в Туркестанском крае. СПб., 1898; 195-197-бетлар.
15. Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX в. (социально-экономический аспект). Тошкент: Фан. 1983, 41-бет.
16. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гоймейстером графом К.К. Паленом. Переселенческое дело в Туркестане. СПб., 1910; 221-бет.
17. Шу жойда. 221-222 бетлар.
18. ЎзР МДА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 5049-йиғмажилд, 142-143-варақлар.